



IJTIMOY PEDAGOGIKANI VA IJTIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYAT RIVOJINING METODOLOGIK ASOSLARI

Tulaganova Dilfuza Rustamdjanovna

TAFU, Maktabgacha ta'lim metodikasi o'qituvchisi

Annotasiya *Ushbu maqolada Pedagogika va ijtimoiy pedagogika mezonlari, prinsiplari, metodlar haqida tushuncha berilgan bo'lib bolalarda kelajak jamiyat a'zosida zarur bo'lgan o'z xatti - harakati uchun javob beradigan; g'amxo'rlik, beminnat ish qilishlik, murakkab sharoitlarda irodaviy kuch topa oladigan, qiyinchiliklar yenga oladigan, mehnatsevar, ona - vatanga cheksiz muxabbat, kamtarlik, minnatdorchilik va boshqa sifatlarni shakllantirishlari alohida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, rivojlanish, faoliyat, ijtimoiylashuv, jamiyat, ta'lim, tarbiya, o'qitish, pedagogik faoliyat, ijtimoiy pedagogik faoliyat, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy g'amxo'rlik, insonga ta'sir o'tkazish, ta'limning ijtimoiy strukturasi, ijtimoiy himoya, ma'naviy yordam.*

Kirish. Yurtimizning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy hayotida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakat taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi ushbu sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, asosan insonga, uning manfaatlariga qaratilgandir. Buni biz Yurtboshimiz SH.M. Mirziyoyevning "Agar menda sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman - degan fikrlaridan ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda qonunlar ustivorligiga amal qilinadigan demokratik jamiyatni barpo etishga kirishilgan bugungi kunda jamiyatimizning barcha a'zolarini, birinchi navbatda o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy ruxda tarbiyalash g'oyat dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, har bir shaxs birinchidan, jamiyatimizning a'zosi sifatida ijtimoiy hayotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlarning yaratuvchisi, jamiyat sub'ekti bo'lsa; ikkinchidan esa, u mazkur jarayonning qatnashchisidir. Bu jihatdan olganda inson jamiyatning ob'ektidir. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-ma'naviy hayotning rivojlanishi murakkab jarayonlardan iborat. Albatta, bunday jarayon kishilarga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Fan bilimlar tizimi, uning tushunchalari va mezonlarida aks etadi. Tushunchalar-mavjud dunyoni idrok etish jarayonidagi aks etilishi shakllaridan biri. Har qanday fan rivojlanish jarayonida tushunchalar fan mezoniga birlashadi, kengayadi va qayta xosil qilinadi. Mezonlar yanada umumiy, fundamntal «asliy» deb atalmish tushunchalarni birlashtiradi. Bu tushunchalardan mazkur fanda ishlatiladigan tushunchalar hosil bo'ladi. Oxirgi yillarda pedagogikada farqlanish jarayoni kuchaydi. Ko'pgina yangi ilmiy sohalar yuzaga keldi, bular soniga ijtimoiy pedagogika ham kirdi. Pedagogikaning har bir yangi ilmiy sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar uning mezon va tushunchalari tizimida o'z aksini topali. Ijtimoiy pedagogika mezonlarini ko'rib chiqishda avvallambor biz pedagogika mezonlarini ajiratamiz. U (pedagogika) boshqa



fanlardan nimani o'zlashtirganini, kaysi mezonlar asil o'ziniki ekanligini ko'rib chiqamiz. Sung u boshqa fanlardan nimani o'zlashtirganini va kaysi tushunchalar o'ziniqiligini bilish uchun pedagogika mezonlarini ijtimoiy pedagogikaga loyhalashtiramiz. Ma'lumki, pedagogika boshqa fanlar tushunchalarini o'zlashtiradi va ulardan keng foydalaniladi, masalan «shaxs», «rivojlanish», «faoliyat», «sotsializatsiya» (ijtimoiylashuv), «jamiyat». Uning asil mezonlari «ta'lim», «tarbiya» va «o'qitish» hisoblanadi. Hozirgi kunda shuningdek umum qabul qilingan «pedagogik faoliyat» mezoni ham kiradi. Ijtimoiy pedagogika asl mezonlariga «ijtimoiy pedagogik faoliyat», «ijtimoiy ta'lim» va «ijtimoiy tarbiya» kiradi. Muhokama:

Pedagogikadagi prinsiplar shaxs ta'lim tarbiyasining umumiy yo'nalishini beradi va aniq pedagogik vazifalar hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya'ning tabiatga uyg'un bo'lishi - ijtimoiy pedagogika prinsipi, shunga ko'ra ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida bolaning tabiiy holda rivojlanish omillariga tayanadi. Tarbiya'ning tarbiyaga uyg'un bo'lish prinsipi ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) bilan uning «Buyuk didaktika» (1632) degan eng asosiy ishida ta'riflangan. Komenskiy, inson tabiatining bir qismi va u tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy krnunlariga buysunadi, deb hisoblanadi. Komenskiyning fikricha, tabiatning bu qonunlari o'simliklar va hayvonlar olamida ham shuningdek, insonga nnsbatan ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Komenskiy nafaqat tabiatning uslubiy qonunlariga. Bola shaxsi psixologiyasiga ham tayanadi. U bolalar, o'spirinlar va yosh yigitlarning yoshiga oid tavsifiga tayangan xolda o'z bolalar ta'lim-tarbiyasi tizimini ilgari suradi, asoslayli va ko'radi. Komenskiydan ancha ilgari Shark; uygonish davri buyuk olimi ensiklopediyachisi va mutafakkiri Abu Ali Ibin Sino (980-1037) o'z asarlarila tarbiya'ning tabiatda uytun bo'lish haqida gapirgan edi. Masalan «uy ro'zg'or tutish» haqidagi asarida Ibn Sino yozgan ediki, inson aqlli mavjudot shuning uchun tabiatda alohida o'rin tutadi va uning qonunlariga ko'ra rivojlanadi. «Yolg'on hislatlarni qayta tarbiyalash» asarida esa Ibn Sino yozadiki, kimki axloqsiz insonni tarbiyalomoqchi bo'lsa, unda u uni har tamonlama o'rganishi, insonning tabiati qoidalarini bilishi kerak.

Inson bialogik mavjudot sifatida tug'iladi, shaxs bo'lib esa bir avloddan ikkinchi avlodga shaxs tarbiyasi va rivojlanishi jarayonida o'tadigan o'zini tutish ijtimoiy tajribani o'zlashtirib yetishadi. Antik jamiyatdagi falsafachilar va pedagoglar shaxs shakllanishi va madaniyati o'rtasidagi chukur bog'liqlikni tahlil qilganlar. Shu narsaga Shark Uyg'onish davri mutafakkirlari va ensiklopediyachilari bo'lgan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy ham o'z asarlarida ham tayanganlar. Bunda ikkita muhim tezis belgilandi: shaxs madaniyati orqali shakllanadi, har qanday madaniyat asosan boyligi esa insondir. O'tmishi falsafachi va pedagoglarn hisoblardiki, madaniyat yuqori axloqiy insonni shakllantirishning zaruriy va eng muhim omilidir. Madaniyat bilan uyg'un bo'lish prinsipi pedagogikada A.Disterveg (XIX asr) bilan ilgari surilgan. U hisoblardiki, tarbiya qilishda joy va vaqt, shart sharoitlarini, ya'ni inson tug'ilgan vaqt: va joyini bir so'z bilan aytganda butun zamonaviy madaniyatni e'tiborga olishga zarur.



Metodlar -o'rganilayotgan obektning mohiyati va qonuniyatlaridan kelib chiqib, borliqni amaliy va nazariy o'zlashtirish usullaridir, ijtimoiy pedagogika esa pedagogikaning bir sohasi bo'lib, uning metodlarini pedagogikada qo'llanadigan tarbiyalash va o'qitishning an'anaviy metodlariga tayanamiz, boshqa tomondan ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy tarbiya'ning ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat bilan o'zgarib bormokda. Yana shuni yodda tutish kerakki, buning diqqat markazida bola va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit turadi ijtimoiy pedagog esa bolaga muammolarni uni ijtimoiylashish jarayoni hal qilishga yordam beradi . Ijtimoiy pedagogika bola bilan bevosiga yoki bilvosita -oila, do'stlari, bolalar jamoasi orqali ta'sir o'tkazadi. U qandaydir qisqa muddatli vazifalarni bajarilishi yoki, bola bilan uzok vakt davomida ishlashi mumkinligini hisobga olamiz. Ijtimoiy pedagogik metodlar orqali bolaning ongi, xulki his-tuyg'ulariga maqsadga muvofiq ta'sir o'tkazilish hamda uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Metodlar - bolaning ijtimoiylashishi va tiklashda hamkorlik qiluvchi, pozitiv ijtimoiy tajriba to'plashida yordam beruvchi ijtimoiy pedagog va bolaning o'zaro bog'liq hatti- harakatlari usullaridir . Ijtimoiy pedagogika ham pedagogikaning eng yangi sohalaridan biri bo'lib, ijtimoiy - pedagogik faoliyat yangi shakllanayotgani uchun uning metodlar tizimi haqida gapirish juda erta. Shuning uchun ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishdagi metodlardan keng foydalanadi. U shakllanishi bosqichida o'z kasbiy faoliyatni bajarish uchun ijtimoiy pedagog alohida usullardan tashqil topgan metodlarni egallashi kerak. Metodlar, usullar va vositalar shu tariqa bir-birlari bilan bog'liqki, metodlar va usullar holat da vositalar rolini bajarishi mumkin. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda ishontirish va mashq qilishi metodlari keng qo'llaniladi, Bu metodni qo'llashning xususiyati shundan iboratki, ijtimoiy pedagog qaysidir sabablarga ko'ra odob - axloqning umum qabul qilingan me'yorlari shakllanmagan yoki notug'ri shakllangan bola bilan ish olib boradilar. Shu jamiyatga qabul qilingan hayot me'yorlari, ular to'g'risidagi to'g'ri va aniq tasavvo'ning yuzaga kelishi, oxir - okibatda shaxsning ishonchi uning hayotdagi o'rnini shakllantiradi, bilim va ular haqidagi tasavvur bilan bog'lik. Ishontirish metodi jamiyatda qabul qilingan me'yorlarni bola xulki va faoliyoti motivlariga ko'chirishga yordam berib, e'tiqodni shakllantiradi.

Hikoya va leksiya-bir kishi ijtimoiy pedagog tomonidan olib boriladigan metodning monologik formasi. hikoya kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda kullaniladi, u o'z ok vakt cho'zilmaydi, aniq va ravshan faktlarga asoslanadi. Leksiya katta yoshdagi bolalarga qo'llaniladi, vakti uzokrok bo'lib, murakkab axloqiy tushunchalar (gumanizm, do'stlik, yaxshilik)ni ochib beradi. Suhbat va disput-dialogik shakldagi usul, bunda bolalarning ishlashi muhim. Suhbat - bu savol-javob metodi ijtimoiy pedagog suhbatni shunday olib borishi kerakki, savollarni nafaqat u, balki bolalar ham bersin. O'smirlar uchun disput metodi kullanadi, bu metod fikrlarini shakllantiradi. Shunday qilib ishontirish - bu ma'lum axloqning to'g'riligi va zarurligini tushuntirish va isbotlash. Agar ishontirish bola ongini "programmallashtirsa, mashq



qilish bilim-ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Mashk qilish oxir- okibatda bolalarda odob-axloqni shakllantirishi uchun zarur. Axloqiy mashqlar deganda, bolalar faoliyati va harakatlarining zarur bo'lgan ko'nikma va odat xosil bo'lib, mustahkamlanishga kadar bo'lgan ko'p marta takrorlanuvchi harakatga aytiladi. Ko'nikma va odatlarning shakllanishi quyidagi usullardan iborat : vazifani qo'yish, uning bajarilishi qoidalarini tushuntirish va talab uyg'otish, amalda qilib ko'rsatish, amaliy mashqni tashqil qilishi, talab kuyishi, talabni bajarishni zslatish va uniig bajarilishini ko'z atib borish. Malaka va odat o'rtasida ma'lum distantsiya bor. Bu malakani shakllantiramiz keyin ma'um vakt muntazam mustahkamlab borib, uni odatga aylantiramiz. Mashq qilish metodining unumliligi ijtimoiy pedagogning mashq qilishini uyin shaklida tashqil qilishi orqali oshadi. Mashk qilishi va ishontirish metodlari o'zaro chambarchas boklik. Ijtimoiy pedagogik metodlar orasida muhim guruhni korreksiya metodlari tashqil qiladi, unga rag'batlantirish va jazolash metodlari kiradi.

Natija: Ijtimoiy -pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslarini maktabgacha ta'lim muassasalarida tadqiqotlar olib boorish lozim.

- mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni hamda o'quv qo'llanmalarni o'rganish;
- respublikada mavjud maktabgacha ta'lim muassasalari ish xujjatlarini keng o'rganish, tahlil etish zarur;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini shu soha bo'yicha uzoq yillar fidokorona mehnat qilgan keksa avlod vakillari bilan suhbatlar olib borishni tashkil etish.
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yosh kadrlar ishtirokida bolalarni ijtimoiylashuvi mavzusida seminar treninglar tashkil etish

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir. Shu sababli ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o'rganadi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga maktab va maktabdan tashqari muassasalardagi tarbiya va qayta tarbiya, bolalar uylari, qariyalar uylarida yashovchilarga g'amxo'rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash, kabilar kiradi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T. 2021.



2. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demakratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. 2016.
3. K. Turg'unboyev. M.Tolipov. I.Oxunov. Ijtimoiy pedagogika asoslari. O'quv qo'llanma. T. 2008.
4. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T. 2009.